MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
OKTABR / 10-SON II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSTIETI

TOSHKENT

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, oktabr.

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

O‘ZBEKISTONDA QAYTA SUG‘URTA MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH: BOZOR TENDENSIYALARI VA XALQARO TAJRIBA 9
Abirkulova Sohibjamol Normuxammad qizi
KUZATUV KAMERALARI VIDEOMA’LUMOTLARI ASOSIDA TALABALAR DAVOMATINI HISOBGA OLISHNING INTELLEKTUAL AXBOROT TIZIMI ALGORITMLARI VA DASTURIY TA’MINOTI 15
Melibayeva Xilolaxon Numonjon qizi
REGIONAL DISPARITIES IN FOREIGN INVESTMENT AND EXPORTS IN UZBEKISTAN: EVIDENCE FOR THE TERRITORIAL TIER OF INVESTMENT GOVERNANCE 20
Imamov Javokhir
RAQAMLI PLATFORMA VA XALQARO MARKETING ASOSIDA O‘ZBEKISTON TA’LIM TURIZMI EKSPORTINI OSHIRISH MEXANIZMI 25
Nigmatova Malika Baxtiyorovna
РИСКИ ИИ-АВТОМАТИЗАЦИИ ПРОФЕССИЙ ДЛЯ ВЫПУСКНИКОВ ШКОЛ УЗБЕКИСТАНА: ПРОФОРИЕНТАЦИОННЫЙ АСПЕКТ 31
Сагдуллаев Шукурулло Комил угли
POMIDOR URUG‘LARIGA KO‘RINUVCHI OPTIK NURLANISH VA O‘ZGARUVCHAN MAGNIT MAYDON BILAN KOMBINATSIYALANGAN ISHLOV BERISHNING KO‘CHAT SIFATI VA HOSILDORLIKKA TA’SIRI 36
Rasulov Davronbek, Eshpulatov N.
TO‘QIMACHILIK SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA NATIJAGA ASOSLANGAN YONDASHUV 41
Mahmudova Chinora
BIZNESNING BARQAROR O‘SISHINI TA’MINLASHDA XODIMLAR MOTIVATSIYASI VA INSON RESURSLARINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK AHAMIYATI 47
Suyunova Kamilla, Xamroyeva Kumush
XORAZM VILOYATINING DEMOGRAFIK-IQTISODIY RIVOJLANISHI VA URBANIZATSIYA JARAYONLARINING SHAKLLANISHI 51
Sobirov Javoxir Xayrulla o‘g‘li
ВЕЩЕСТВЕННЫЙ СОСТАВ ЗОЛОТОГО ОРУДЕНЕНИЯ МЕСТОРОЖДЕНИЯ ЧАКМАКТАШ 60
Исаходжаев Х. Б., Ишбобаев Т. Б., Пирназаров М. М., Муминов М. Б., Мирзаходжаев Т. Р.
YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QO‘QON SHAHRI IQTISODIYOTINING TARMOQLAR KESIMIDAGI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI 66
Qodirov Abubakr, Egamberdiyev Muzaffar
DEPOZIT STAVKALARI PASAYISHI SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORIDAGI VOSITACHILIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMADLARNI SHAKLLANTIRISH 71
Ortiqboyev Bahrom Bahodir o‘g‘li
MEHNAT SAMARADORLIGI VA BANDLIKNING XIZMATLAR SEKTORIDAGI IQTISODIY AHAMIYATI 75
Djurayev Olimjon Narkulovich
МОДЕЛЬ КОМПЛЕКСНОГО АНАЛИЗА ПРОЦЕССА КОМПЬЮТЕРНОЙ РАЗВЕДКИ ИНФОКОММУНИКАЦИОННЫХ СИСТЕМ БАНКОВСКОГО СЕКТОРА 80
Бекбаев Гамзатдин Алеуатдинович
O‘ZBEKISTONDA YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARIDA SUN’IY INTELLEKT BO‘YICHA TADQIQOTLAR VA ADABIYOTLAR SHARHI 87
Uteuliev Niyetbay, Saytov Kamiljan
АНАЛИЗ ТЕКУЩИХ ПРОЕКТОВ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА С УЧАСТИЕМ МЕЖДУНАРОДНЫХ ФИНАНСОВЫХ ИНСТИТУТОВ 94
Атаджанова Динара Хасановна

INVESTITSIYA RESURSLARINI YUQORI QO‘SHILGAN QIYMATLI TARMOQLARGA QAYTA TAQSIMLASH ORQALI TARKIBIY O‘ZGARISHLAR VA IQTISODIY O‘SISH O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNI KUCHAYTIRISH..... 101
Yoqubova (Sheraliyeva) Zilola Tura qizi
SIZING THE APERTURE AREA, PHASE-CHANGE TEMPERATURE AND STORAGE CAPACITY OF A SOLAR-CONCENTRATOR-DRIVEN PCM RADIANT FLOOR 107
Jurabek Kamolov, Sokhib Temirov Marjona Makhmudova
O‘ZBEKISTONDA SOLIQ XAVFLARI BO‘YICHA TUSHUNTIRISHLI XABARNOMALAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH 118
Abdurakhmanov Olim Kalandarovich
QASHQADARYO VILOYATIDA YETISHTIRILGAN QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINING XO‘JALIK TOIFALARI BO‘YICHA TAHLILI 123
Nurxonov Nurkomil Qahramon o‘g‘li
KICHIK BIZNESNI YASHIRIN IQTISODIYOTDAN CHIQARISHDA RAQAMLASHTIRISH VA MOLIYAVIY SHAFFOFLIK MEXANIZMLARI 129
Yunusov Marat Erkinovich
BARQAROR TRANSPORT XIZMATLARI UCHUN “YASHIL” INFRATUZILMANI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI 135
Quliyev Begimqul Melikovich
BO‘LAJAK VETERINAR MUTAXASSISLARNING TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY AMALIYOT 141
Narziyeva Nargiza Norkuziyevna
O‘ZBEKISTONDA MILLIY VALYUTADAGI MUDDATLI DEPOZITLAR BO‘YICHA FOIZ STAVKALARINING DINAMIKASI VA DIFFERENSIALLASHUVINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 146
Mamatkulov Nurbek Kamiljon o‘g‘li
O‘ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOT LOYIHALARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH 154
Bo‘riyev Sherbek Akrom o‘g‘li
SEGMENTAR HISOB VA HISOBOTNI TASHKIL ETISHNING XALQARO STANDARTLARI HAMDA ILG‘OR XORIJ TAJRIBASI 162
U. A. Shirinov
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI BANDLIGINI BAHOLASHNING KENGAYTIRILGAN KO‘RSATKICHLAR TIZIMI 168
Akbarova Malika Ilxomovna
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY XATO VA NOMUVOFIQLIKLAR ICHKI AUDITINI AMALGA OSHIRISH METODIKASINING AMALDAGI HOLATINI BAHOLASH 173
Mulayev Farxod Alisherovich
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ОЦЕНКИ ВЛИЯНИЯ INDUSTRY 4.0 НА ПРОИЗВОДСТВО 178
Кудайназарова Дилназ Кошкарбаевна
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING IQTISODIY TARAQQIYOTDAGI O‘RNI 184
Raxmatov Mirshams, Pardayeva Asalxon
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TO‘LOVGA QOBILIYATSIZLIKNI ERTA ANIQLASHNING MOLIYAVIY-ANALITIK MEXANIZMLARI VA INTEGRAL BAHOLASH TIZIMI 191
Xusainov Shavkat Abdushukurovich
“YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISH SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA ESG TAMOYILLARI ASOSIDA BARQAROR BOSHQARUV MODELINI SHAKLLANTIRISH 198
Maxmudov Baxriddinxon Jo‘rayevich
TOG‘ VA TOG‘OLDI HUDUDLARIDA QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQARISHINI TASHKIL ETISHGA TABIIY SHAROITLARNING TA’SIRI 206
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

IVESTITSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDA XALQARO KREDIT LINIYALARI RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH 212
Aliyev Bekzod Ilhomovich
KABEL SANOATI KORXONALARIDA INNOVATSION-INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH: “UZKABEL” AJ QK MISOLIDA 218
Igamberdiev Karimberdi Abdullaevich
TRANSPORT INFRATUZILMASIDA INKLUZIVLIKNI TA’MINLASH (BUXORO SHAHRI MISOLIDA) 224
Bomurodova Madina Voxidjon qizi
“O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI” AJ SANOAT KORXONALARIDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 230
Rizayev Faxriddin Ramziddin o‘g‘li
ПРОИЗВОДСТВО МЯСА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ ОГРАНИЧЕННОСТИ РЕСУРСОВ: ДИНАМИКА, СТРУКТУРНЫЕ СДВИГИ И ФАКТОРЫ ЗАМЕДЛЕНИЯ РОСТА 235
Мамедов Первиз, Назаркулов Умиджан
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОПЛАТЫ ТРУДА И МОТИВАЦИИ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ГОСУДАРСТВЕННЫХ КОМПАНИЙ: ПРИМЕНЕНИЕ КИТАЙСКОЙ МОДЕЛИ «ТРЁХ СИСТЕМ» В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА 244
Хусаинов Равшан, Ren Peng
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ СТРУКТУРЫ КАПИТАЛА КОМПАНИЙ НА ИХ СТОИМОСТЬ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА 250
Алиева Сусанна Сейрановна
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI 256
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich
Namangan davlat texnika universiteti,
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Raqamli texnologiyalarni kichik biznes faoliyatiga joriy etish, jumladan, elektron tijorat, raqamli marketing, bulutli texnologiyalar, sun’iy intellekt, raqamli to‘lov tizimlari hamda boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirishning korxonalar raqobatbardoshligiga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan. Kichik biznes subyektlarida raqamli transformatsiya jarayonlarini rivojlantirish orqali xarajatlarni optimallashtirish, mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, bozor imkoniyatlarini kengaytirish hamda mijozlar bilan munosabatlarni takomillashtirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari asosida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, kichik biznes, tadbirkorlik, raqobatbardoshlik, elektron tijorat, raqamli marketing, innovatsiya, raqamli texnologiyalar, raqamli platformalar.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of improving the competitiveness of small business entities in the context of digital transformation. The study analyses the impact of integrating digital technologies into small business activities, including e-commerce, digital marketing, cloud technologies, artificial intelligence, digital payment systems, and the automation of management processes. The research employs a systems approach, comparative analysis, grouping, induction, and deduction methods. The study substantiates opportunities to optimise costs, improve the quality of products and services, expand market opportunities, and strengthen customer relationships through the further development of digital transformation processes in small businesses. Based on the research findings, an organisational and economic mechanism for enhancing the competitiveness of small business entities is proposed.

Keywords: digital economy, digital transformation, small business, entrepreneurship, competitiveness, e-commerce, digital marketing, innovation, digital technologies, digital platforms.

Аннотация. В статье исследованы теоретические и практические аспекты повышения конкурентоспособности субъектов малого бизнеса в условиях цифровой трансформации. Проанализировано влияние внедрения цифровых технологий в деятельность малого бизнеса, включая электронную коммерцию, цифровой маркетинг, облачные технологии, искусственный интеллект, цифровые платёжные системы и автоматизацию управленческих процессов. В исследовании использованы системный подход, сравнительный анализ, группировка, методы индукции и дедукции. Обоснованы возможности оптимизации затрат, повышения качества продукции и услуг, расширения рыночных возможностей и совершенствования взаимоотношений с клиентами посредством дальнейшего развития процессов цифровой трансформации в малом бизнесе. По результатам исследования предложен организационно-экономический механизм повышения конкурентоспособности субъектов малого бизнеса.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровая трансформация, малый бизнес, предпринимательство, конкурентоспособность, электронная коммерция, цифровой маркетинг, инновации, цифровые технологии, цифровые платформы.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tashkil etish va boshqarishning an’anaviy usullarini sezilarli darajada takomillashtirmoqda. Internet texnologiyalari, elektron tijorat, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, bulutli texnologiyalar, raqamli to‘lov tizimlari va boshqa innovatsion vositalarning keng tarqalishi korxonalar uchun yangi bozor imkoniyatlarini yaratish bilan birga, raqobat muhitining yanada faol va dinamik shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, kichik biznes subyektlari uchun raqamli transformatsiya yangi rivojlanish imkoniyatlarini yaratish bilan birga, zamonaviy tashkiliy va texnologik yondashuvlarni ham talab etmoqda. Bir tomondan, raqamli texnologiyalar kichik korxonalarga nisbatan cheklangan moliyaviy va moddiy resurslar sharoitida ham kengroq bozorlarga chiqish, mijozlar bazasini kengaytirish, marketing xarajatlarini optimallashtirish hamda biznes jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish moliyaviy resurslar, malakali kadrlar, rivojlangan axborot infratuzilmasi va zamonaviy boshqaruv ko‘nikmalarini shakllantirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim o‘rin egallab, mazkur sektor aholi bandligini ta’minlash, yangi ish o‘rinlarini yaratish, hududiy iqtisodiy faollikni oshirish hamda ichki va tashqi bozorlarga mahsulot va xizmatlar yetkazib berishda katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli kichik biznes subyektlarining zamonaviy raqobat muhitiga moslashuvi va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Raqamli transformatsiya sharoitida raqobatbardoshlikni faqat mahsulot narxi yoki sifati bilan baholash to‘liq natija bermaydi. Zamonaviy sharoitda korxonaning raqamli marketing vositalaridan foydalanish darajasi, mijozlar bilan onlayn muloqot qilish imkoniyati, elektron to‘lovlarni qabul qilish salohiyati, ma’lumotlarni tahlil qilish qobiliyati, yetkazib berish tizimining tezkorligi hamda innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatlari ham raqobatbardoshlikni belgilovchi muhim omillarga aylanmoqda.

Shundan kelib chiqib, mazkur maqolaning asosiy maqsadi raqamli transformatsiya sharoitida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularni rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida raqamli texnologiyalardan foydalanayotgan kichik biznes subyektlarining faoliyati tanlangan. Tadqiqot predmetini esa kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish jarayonida raqamli transformatsiya bilan bog‘liq tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar va mexanizmlar tashkil etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli transformatsiya va kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligi o‘rtasidagi bog‘liqlik xalqaro hamda mahalliy tadqiqotlarda turli jihatlardan yoritilgan. OECD (2021) hisobotida raqamli platformalar va bulutli xizmatlardan foydalanish kichik korxonalarga ayrim biznes funksiyalarini nisbatan kam xarajatlar asosida tashkil etish hamda bozor imkoniyatlarini kengaytirishga ko‘maklashishi qayd etilgan. Shu bilan birga, moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish va tegishli infratuzilmani takomillashtirish texnologiyalarni samarali o‘zlashtirishning muhim shartlari sifatida ajratib ko‘rsatilgan [10].

Mahalliy tadqiqotlarda Z.M. Boymirzayev (2024) kichik biznes mahsulotlarini tashqi bozorlarga olib chiqish imkoniyatlari hamda eksportni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini tahlil qilgan [5]. G.Z. Xakimova va U.B. Xolmirzayev (2026) esa kichik biznes subyektlarining innovatsion faolligini oshirishni moliyaviy rag‘batlantirish, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar tayyorlash hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonlari bilan bog‘laydi [13]. Mazkur tadqiqotlar kichik biznesning bozor imkoniyatlarini kengaytirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari bilan korxonalarning ichki salohiyatini o‘zaro uyg‘unlashtirish muhimligini ko‘rsatadi.

Ko‘rib chiqilgan ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish asosida raqamlashtirish natijalarini faqat texnologiyalarning mavjudligi bilan emas, balki ularning xarajatlar tarkibi, mijozlar bazasi, bozorga chiqish imkoniyatlari va faoliyat natijadorligiga ta’siri orqali kompleks baholash maqsadga muvofiq. Mazkur maqolada ushbu yondashuv rivojlantirilib, raqamli infratuzilma, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, raqamli kompetensiyalar hamda natijadorlik monitoringini o‘zaro birlashtiruvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizm taklif etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda iqtisodiy jarayonlarni kompleks o‘rganish imkonini beruvchi bir qator ilmiy-uslubiy yondashuv va usullardan foydalanildi. Jumladan, tizimli yondashuv asosida kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligiga ta’sir etuvchi omillar ichki va tashqi omillar guruhlariga ajratilib, ularning raqamli transformatsiya jarayonlari bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalarining yetarli darajadagi reprezentativligini ta’minlash hamda kichik biznes subyektlarida raqamli transformatsiyaning raqobatbardoshlikka ta’sirini batafsil baholash maqsadida shakllantirilgan kuzatuv birliklari va tegishli iqtisodiy ko‘rsatkichlarning umumiy majmuasidan 10 foizlik tanlanma ajratilib, chuqurlashtirilgan tahlilda foydalanildi.

Qiyosiy tahlil usuli yordamida an’anaviy biznes modeli bilan raqamli biznes modelining asosiy xususiyatlari va farqli jihatlari o‘rganildi. Guruhlash usuli orqali esa raqamli transformatsiyaning kichik biznes faoliyatidagi

asosiy yo‘nalishlari tizimlashtirildi. Induksiya va deduksiya usullari raqamli texnologiyalarning alohida biznes jarayonlariga ta’sirini umumlashtirish hamda ilmiy xulosalarni shakllantirishda qo‘llanildi.

Kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini baholashda quyidagi asosiy mezonlardan foydalanish taklif etiladi:

- mahsulot va xizmatlar sifati;
- ishlab chiqarish va operatsion xarajatlar;
- mehnat unumdorligi;
- innovatsion faollik;
- bozor ulushi;
- mijozlar soni va ularning sodiqlik darajasi;
- raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi;
- elektron tijoratdan foydalanish ko‘lami;
- eksport imkoniyatlari;
- boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish darajasi.

Raqamli transformatsiyaning kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligiga ta’sirini quyidagi konseptual model orqali ifodalash mumkin:

Raqamli infratuzilma → raqamli texnologiyalar → biznes jarayonlarini avtomatlashtirish → xarajatlarni optimallashtirish → mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish → mijozlar bazasini kengaytirish → raqobatbardoshlikni oshirish.

Mazkur modelda raqamli infratuzilma transformatsiya jarayonining boshlang‘ich sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish esa biznes jarayonlarini tezlashtirish, ularni optimallashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirish imkonini beradi. Natijada korxonaning operatsion samaradorligini yaxshilash, bozor imkoniyatlarini kengaytirish hamda raqobatbardoshlik darajasini bosqichma-bosqich oshirish uchun zarur shart-sharoitlar shakllanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda raqamli transformatsiyaning bir nechta ustuvor yo‘nalishlari mavjudligini ko‘rsatadi.

Biznes jarayonlarini raqamlashtirish. Kichik korxonalarda buxgalteriya hisobi, ombor hisobi, sotuv, xarid, mijozlar bilan ishlash hamda moliyaviy boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish boshqaruv xarajatlarini optimallashtirish va operatsion samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Masalan, elektron hisob-kitob tizimlaridan foydalanish hujjatlarni qayta ishlashga sarflanadigan vaqtni qisqartirib, tadbirkorga asosiy faoliyat va strategik vazifalarga ko‘proq e’tibor qaratish imkonini yaratadi.

Elektron tijoratdan foydalanish. Elektron tijorat kichik biznes subyektlariga an’anaviy geografik bozor doirasini kengaytirish imkonini beradi. Korxonalar o‘z mahsulot va xizmatlarini ijtimoiy tarmoqlar, elektron savdo platformalari hamda shaxsiy veb-saytlari orqali iste’molchilarga taklif etishi mumkin. Bu jarayon bozor geografiyasini kengaytirish, savdo xarajatlarini optimallashtirish, yangi mijozlarni jalb qilish, mahsulotlar to‘g‘risidagi axborotni tezkor yetkazish hamda sotuv jarayonlarini jadallashtirish imkoniyatlarini yaratadi.

Raqamli marketingni rivojlantirish. Raqamli marketing an’anaviy reklama usullarini to‘ldirgan holda kichik biznes subyektlariga mijozlarning xatti-harakatlari, ehtiyojlari va xarid qilish faolligini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv tizimlari, elektron pochta va boshqa raqamli kanallardan foydalanish orqali korxonalar o‘z mahsulot va xizmatlarini maqsadli auditoriyaga samarali yetkazishi mumkin.

Raqamli marketing samaradorligini baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichdan foydalanish mumkin:

Marketing samaradorligi = qo‘shimcha sotuv hajmi / marketing xarajatlari.

Mazkur ko‘rsatkich raqamli reklama va marketing faoliyatining iqtisodiy natijadorligini baholash hamda marketing resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish. Fintech xizmatlarining rivojlanishi kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy operatsiyalarni tezkor va qulay amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Elektron to‘lovlar, mobil banking, onlayn kreditlash, elektron hisob-fakturalar va boshqa raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish moliyaviy boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, hisob-kitoblarni tezlashtirish va pul oqimlarini samarali boshqarishga xizmat qiladi.

Ma’lumotlardan samarali foydalanish. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ma’lumotlar biznes faoliyatining muhim strategik resurslaridan biriga aylanmoqda. Mijozlar, sotuvlar, xarajatlar va bozor holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni muntazam yig‘ish, qayta ishlash va tahlil qilish tadbirkorlarga ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Masalan, sotuv ma’lumotlarini tahlil qilish orqali korxona talab yuqori bo‘lgan mahsulotlarni aniqlashi, zaxiralarni optimallashtirishi va marketing strategiyasini yanada

takomillashtirishi mumkin.

Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kichik biznes subyektlarining raqamli transformatsiyasini samarali amalga oshirishda inson kapitali muhim omillardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish uchun tadbirkorlar va xodimlarda raqamli savodxonlik, ma’lumotlarni tahlil qilish, elektron tijorat va raqamli marketing vositalaridan foydalanish, kiberxavfsizlik talablariga rioya etish hamda zamonaviy dasturiy ta’minot bilan ishlash ko‘nikmalarini muntazam rivojlantirib borish maqsadga muvofiq (1-jadval).

1-jadval

Kichik biznes raqobatbardoshligini oshirishda raqamli transformatsiyaning asosiy yo‘nalishlari[1]

Raqamli yo‘nalish	Biznes jarayoniga ta’siri	Kutiladigan natija
Elektron tijorat	Sotuv geografiyasini yanada kengaytiradi	Bozor hajmi oshadi
Raqamli marketing	Mijozlarni aniq segmentlash imkonini beradi	Sotuv samaradorligi oshadi
Bulutli texnologiyalar	Axborotga tezkor kirishni ta’minlaydi	Boshqaruv tezlashadi
ERP/CRM tizimlari	Biznes jarayonlarini avtomatlashtiradi	Xarajatlar kamayadi
Raqamli to‘lovlar	Hisob-kitoblarni tezlashtiradi	Moliyaviy operatsiyalar samaradorligi oshadi
Ma’lumotlar tahlili	Qarorlar sifatini oshiradi	Resurslardan foydalanish yaxshilanadi
Sun’iy intellekt	Ayrim jarayonlarni avtomatlashtiradi	Mehnat unumdorligi oshadi

Raqamli transformatsiya kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratishi bilan birga, uni samarali joriy etishda takomillashtirish talab etiladigan bir qator yo‘nalishlar ham mavjud.

Birinchi yo‘nalish - **moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish**. Kichik biznes subyektlarida zamonaviy dasturiy mahsulotlar, texnologik uskunalar va raqamli xizmatlarni xarid qilish uchun qo‘shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli raqamli transformatsiya jarayonlarini moliyalashtirishning qulay va moslashuvchan mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi yo‘nalish - **malakali raqamli kadrlar salohiyatini rivojlantirish**. Raqamlashtirish jarayoni faqat texnik vositalarni xarid qilish bilan cheklanmaydi, balki ushbu texnologiyalardan samarali foydalana oladigan mutaxassislarning bilim va ko‘nikmalarini muntazam oshirib borishni ham talab etadi.

Uchinchi yo‘nalish - **kiberxavfsizlikni ta’minlash.** Raqamli tizimlardan foydalanish kengaygani sari korxonalarda axborot xavfsizligini ta’minlashga bo‘lgan talab ham ortib boradi. Mijozlarga oid ma’lumotlar, moliyaviy axborotlar va korxonaning ichki ma’lumotlarini ishonchli himoya qilish raqamli faoliyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

To‘rtinchi yo‘nalish - **hududlar bo‘yicha raqamli infratuzilmani yanada muvozanatli rivojlantirish.** Ayniqsa, olis va chekka hududlarda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari uchun sifatli internet, elektron xizmatlar va zamonaviy raqamli infratuzilmadan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ularning raqamli transformatsiyadagi ishtirokini faollashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur yo‘nalishlarni izchil rivojlantirish uchun kichik biznesni raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini quyidagi o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlar asosida shakllantirish maqsadga muvofiq:

Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash → raqamli infratuzilma → moliyaviy qo‘llab-quvvatlash → raqamli kompetensiyalar → texnologiyalarni joriy etish → monitoring va baholash.

Ushbu mexanizm doirasida kichik biznes subyektlarining raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq xarajatlarini qisman qo‘llab-quvvatlash, imtiyozli moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish, maxsus o‘quv dasturlarini tashkil etish hamda raqamli infratuzilmani rivojlantirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv kichik biznes subyektlarining raqamli texnologiyalarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirishi va ularning amaliy samaradorligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Shuningdek, kichik biznes subyektlarining raqamlashtirish jarayonlarini tizimli baholash maqsadida “Raqamli transformatsiya indeksi”ni joriy etish taklif etiladi. Mazkur indeks quyidagi formula asosida aniqlanishi mumkin:

Raqamli transformatsiya indeksi = (IT + ET + DM + DF + DA) / 5

1 Muallif ishlanmasi.

Bu yerda:
IT - axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi;
ET - elektron tijoratdan foydalanish darajasi;
DM - raqamli marketingdan foydalanish darajasi;
DF - raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi;
DA - ma'lumotlarni tahlil qilish vositalaridan foydalanish darajasi.

Har bir komponentni **0 dan 1 gacha bo'lgan intervalda** baholash orqali korxonalarning umumiy raqamli transformatsiya darajasini aniqlash va ularni o'zaro qiyoslash imkoniyati yaratiladi. Indeks qiymatining 1 ga yaqinlashishi korxonada raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining yuqoriroq ekanini ifodalaydi.

Mazkur yondashuv kichik biznes subyektlarining qaysi yo'nalishlarda raqamlashtirish salohiyatini yanada rivojlantirish zarurligini aniqlash, tegishli qo'llab-quvvatlash choralarini manzilli shakllantirish hamda raqamli transformatsiya natijadorligini muntazam monitoring qilish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, raqamli transformatsiya kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar biznes jarayonlarini tezlashtirish, xarajatlarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish hamda yangi bozor segmentlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ikkinchidan, kichik biznesni raqamlashtirish faqat texnologik jarayon bilan cheklanmay, tashkiliy, iqtisodiy va inson kapitali omillarini o'zaro uyg'unlashtirishni talab etadigan kompleks jarayon hisoblanadi. Shu sababli raqamli transformatsiya strategiyasini korxonaning moliyaviy imkoniyatlari, kadrlar salohiyati va biznes maqsadlari bilan bog'liq holda shakllantirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, elektron tijorat, raqamli marketing, raqamli moliyaviy xizmatlar, CRM va ERP tizimlari hamda ma'lumotlarni tahlil qilish vositalaridan foydalanish kichik biznes subyektlarining bozor imkoniyatlarini kengaytirish, mijozlar bilan munosabatlarni takomillashtirish va boshqaruv qarorlarining tezkorligini oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, raqamli transformatsiyaning samaradorligi ko'p jihatdan tadbirkorlar va xodimlarning raqamli kompetensiyalariga bog'liq. Shu bois kichik biznes subyektlari uchun amaliy raqamli ta'lim dasturlarini kengaytirish, xodimlarning zamonaviy dasturiy vositalar, elektron tijorat, raqamli marketing va ma'lumotlar tahlili bo'yicha ko'nikmalarini muntazam rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, kichik biznes subyektlarini raqamlashtirishni qo'llab-quvvatlashda davlat organlari, moliya institutlari, ta'lim muassasalari va biznes vakillari o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bunda raqamli infratuzilmadan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish hamda natijadorlikni muntazam monitoring qilish muhim yo'nalishlar sifatida qaralishi mumkin.

Umuman olganda, kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirish uchun **"raqamli infratuzilma → moliyaviy qo'llab-quvvatlash → raqamli kompetensiyalar → texnologiyalarni joriy etish → bozor imkoniyatlarini kengaytirish → natijadorlikni baholash"** tamoyiliga asoslangan kompleks tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur mexanizm kichik biznes subyektlarining ichki bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlash bilan birga, elektron tijorat va raqamli platformalar orqali tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga ham xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya natijalarini maxsus indikatorlar asosida muntazam baholab borish mazkur mexanizmning amaliy samaradorligini oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 11.12.2003 yildagi "Axborotlashtirish to'g'risida"gi 560-II-sonli qonuni https://lex.uz/ru/docs/-83472
2. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrdagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ-792-sonli Qonuni. [Elektron resurs]. – LexUZ. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-6213382
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020-yildagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-sonli Farmoni https://lex.uz/docs/-5030957
4. Raqamli iqtisodiyot bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar [Elektron resurs].
5. **Boymirzayev Z.M.** Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorijga eksport qilish imkoniyatlari va mexanizmlari / Z.M. Boymirzayev // *Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi*. – 2024. – J. 4. – № 5. – B. 47–53. – DOI: https://doi.org/10.55439/AFA/vol4_iss05/332.
6. **Boymirzayev Z.M.** Kichik biznes korxonalari eksport mahsulotlari ishlab chiqarish konsepsiyasi / Z.M. Boymirzayev // *Muhandislik va iqtisodiyot*. – 2024. – № 5. – B. 262. – [Elektron resurs]. – URL: https://muhandislik-iqtisodiyot.uz.

7. **Boymirzayev Z.M.** Tadbirkorlik subyektlari eksport faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari / Z.M. Boymirzayev // *Ta’lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar*. – 2025. – № 5. – ISSN 2181-7286.
8. **Ismoilov D.** O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes subyektlarining raqamli transformatsiyasi asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash va takomillashtirish yo‘llari / D. Ismoilov // *Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari*. – 2025. – J. 5. – № 2. – B. 171–176.
9. **Mashrabjonovna X.D.** O‘qituvchi innovatsion salohiyatini rivojlantirish zamonaviy o‘qituvchini shakllantirishning asosiy omili sifatida / X.D. Mashrabjonovna // *O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari*. – 2025. – B. 63–66.
10. **OECD.** The Digital Transformation of SMEs / OECD. – Paris: OECD Publishing, 2021. – (OECD Studies on SMEs and Entrepreneurship). – DOI: https://doi.org/10.1787/bdb9256a-en.
11. **Хакимова Д.М.** Ўқитувчи фаолиятида инновацион салоҳиятнинг ўрни ва аҳамияти / Д.М. Хакимова // *Наманган давлат университети – 2021*. – 2020. – № 1. – Б. 523.
12. **Xakimova D.** Innovatsiya va innovatsion salohiyatning pedagogik ahamiyati / D. Xakimova // *O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari*. – 2025. – B. 204–208.
13. **Xakimova G.Z., Xolmirzayev U.B.** Kichik biznes subyektlarining innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish yo‘llari / G.Z. Xakimova, U.B. Xolmirzayev // *Green Economy and Development*. – 2026. – J. 4. – 1-maxsus son. – DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.18641508.
14. **Xolmirzayev U.B.** Rivojlanishda raqobat emas, balki hamkorlikning ustuvorligi: nazariy va amaliy tahlil / U.B. Xolmirzayev // *Green Economy and Development*. – 2026. – J. 4. – № 3.
15. **Xolmirzayev U.B., Xasanboyeva M.** Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va hisobotini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishdagi muammolar va kamchiliklar / U.B. Xolmirzayev, M. Xasanboyeva // *Green Economy and Development*. – 2026. – J. 4. – № 2.
16. **Xolmirzayev U.B., Yahyayeva R.N.** Moliyaviy hisobotlarning qaror qabul qilish jarayonidagi iqtisodiy roli / U.B. Xolmirzayev, R.N. Yahyayeva // *Green Economy and Development*. – 2026. – J. 4. – № 2.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**


+998 93 718 40 07

https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal

t.me/yait_2100